

**THE MIDDLE EAST POLICY OF THE KINGDOM OF SAUDI ARABIA****Asilbek Komolbekovich Shukurov***Independent Researcher**Doctor of Philosophy in Political Science (PhD)**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekiston***ABOUT ARTICLE**

Key words: Kingdom of Saudi Arabia, Middle East, Gulf region, USA, PRC, Islamic Republic of Iran, cooperation, prospects, trade, economy, investment, education, culture, diplomatic relations.

Received: 25.12.25**Accepted:** 26.12.25**Published:** 27.12.25

Abstract: This article examines the key features of the Middle East policy of the Kingdom of Saudi Arabia (KSA), its development trends, and its current state. The analysis focuses on KSA's efforts to enhance its leadership role in the Middle East region and to maintain a balance of power within the global political system.

The ongoing transformations in KSA's regional foreign policy are closely linked to the "Vision 2030" program. In this regard, the article elucidates the main objectives of this program through a number of illustrative examples. The reasons behind the changes in KSA's foreign policy positions, potential scenarios, and possible forecasts are analyzed on the basis of scholarly hypotheses and theoretical assumptions proposed by leading academics, followed by well-grounded conclusions.

Furthermore, the article explores the fundamental objectives of KSA's regional foreign policy, the manifestations of its position in global politics, and substantiates the necessity of pursuing a renewed foreign policy approach in the context of escalating crises in the Middle East.

**SAUDIYA ARABISTONI PODSHOHLIGINING YAQIN SHARQ MINTAQSI
SIYOSATI****Asilbek Komolbekovich Shukurov***Mustaqil tadqiqotchi*

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Saudiya Arabistoni Podshohligi, Yaqin sharq, Ko'rfaz mintaqasi, AQSh, XRR, EIR, hamkorlik, istiqbollar, savdo, iqtisodiyot, sarmoya, ta'lim, madaniyat, diplomatik munosabatlar.

Annotatsiy: Ushbu maqolada Saudiya Arabistoni Podshohligi (SAP) Yaqin Sharq siyosatining xususiyatlari, uning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi holati muhokama qilinadi. Ayni paytda SAP tashqi siyosatida Yaqin Sharq mintaqasida yetakchilik rolini oshirishga hamda global kuchlar muvozanitini saqlashga harakat qilayotganligi tahlil qilinmoqda.

SAP miintaqaviy tashqi siyosatidagi hozirgi o'zgarishlar uning "Vision 2030" (Nigoh 2030) dasturi bilan uzviy bog'liqdir. Shu jihatdan maqolada ushbu dasturning masadlari ham bir qator misollar bilan tushuntirilgan. SAP tashqi siyosiy pozitsiyasining o'zgarishlarining sabablari, kutilishi mumkin bo'lgan ehtimollar va tahminlar oolimlarning ilmiy farazlari asosida tahlil qilingan hamda xulosalar taqdim etilgan.

Shuningdek, maqolada SAPning mintaqaviy tashqi siyosatining asl maqsadlari, global siyosatdagi pozitsiyasi nimalarda namoyon bo'layotganligi va hozirgi inqirozlar kartinasi avj olgan Yaqin Sharqda yangicha tashqi siyosat olib boorish zaruriyati tahlili amalga oshirilgan.

ПОЛИТИКА КОРОЛЕВСТВА САУДОВСКАЯ АРАВИЯ В РЕГИОНЕ БЛИЖНЕГО ВОСТОКА

Асилбек Комолбекович Шукуров

Независимый исследователь

Доктор философии по политическим наукам (PhD)

Ташкентского государственного университета востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Королевство Саудовская Аравия, Ближний Восток, регион Персидского залива, США, КНР, ИРИ, сотрудничество, перспективы, торговля, экономика, инвестиции, образование, культура, дипломатические отношения.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности политики Королевства Саудовская Аравия (КСА) на Ближнем Востоке, тенденции её развития и современное состояние. Анализируется стремление КСА к усилению своей роли регионального лидера на Ближнем Востоке, а также к поддержанию баланса сил в глобальной политике.

Современные изменения во внешнеполитическом курсе КСА в региональном измерении тесно связаны с программой «Vision 2030» («Видение 2030»). В этой связи в статье с опорой на конкретные примеры раскрываются основные цели данной программы. Причины трансформации внешнеполитических позиций КСА, возможные сценарии развития и прогнозы анализируются на основе научных гипотез и концептуальных подходов ведущих исследователей, по итогам чего формулируются соответствующие выводы.

Кроме того, в статье рассматриваются ключевые цели региональной внешней политики КСА, особенности её позиции в глобальной политике, а также обосновывается необходимость выработки нового внешнеполитического курса в условиях нарастающих кризисных процессов на Ближнем Востоке.

Kirish. So‘nggi yillarda dunyoda yuz berayotgan voqealar, dunyoning geosiyosiy stukturasi va taraqqiyot yo‘nalishini tubdan o‘zgartirmoqda. Sovuq urush yakunidan so‘ng xalqaro munosabatlar tizimiga yangi davlatlarning kirib kelishi natijasida dvlatlارaro munosabatlar, o‘zaro siyosat va diplomatiya maydonini tubdan boshqa mohiyat va mazmun kasb etdi. Bunday o‘zgarishlar dnyo davlatlarini o‘zlarining tashqi siyosati hamda siyosiy yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqishga majbr qilmoqda. Ma’lumki, xalqaro munosabatlar tizimida davlatlarni “global kuch”, “mintaqaviy kuch” va “o‘rta kuch” nuqtai nazaridan, “jahoniy davlat”, “mintaqaviy davlat” va “o‘rta davlat” kabi turlarga ajratilishi mavjud xodisadir. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot obyekti sanalgan Saudiya Arabistoni Podshohligi (SAP) bugungi kunda tez rivojlanayotgan va iqtisodiy imkoniyatlari yuqori sanalgan mintaqaviy kukch sifatida namoyon bo‘lmoqda.

SAP tomonidan e’lon qilingan “Vision 2030” (Nigoh 2030) nomli dasturda 2030-yilgacha podshohlik misli ko‘rilmagan darajada rivojlantirish, uni Yaqin Sharqning mustahkam va mutloq birinchi moliyaviy markaziga aylantirish, arab-musulmon dunyosida yetakchilik maqomini mustahkamlash va shu orqali jahonda yetakchi iqtisodiy kuch markazlaridan biri maqomiga erishish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. “Vision 2030”ning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

Saudiya Arabistonini jahonning rivojlangan 19-davlatidan iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan 15-mamlakati darajasiga olib chiqish;

Mamlakatda xususiy sektor ulushini YAIMning 40 foizidan 65 foizigacha o‘stirish;
Neftga bog‘liq bo‘lmagan eksport ulushini 16 foizdan 50 foizgacha ko‘tarish;
Davlatning neftga bog‘liq bo‘lmagan daromadlarini 163 milliard Saudiya rialidan 1 trillion Saudiya rialigacha oshirish;
Makka va Madinaga keluvchi ziyoratchilar sonining yillik 8 millionlik ko‘rsatkichini 30 milliongacha oshirish;
2030-yilga kelib, harbiy texnik harajatlarning 50 foizidan ortig‘ini mahalliyashtirish;
Neft va gaz sohasidagi milliyashtirishni 40 foizdan 75 foizgacha ko‘tarish;
Davlat investitsiya jamg‘armasi aktivlarini 600 milliarddan 7 trillion Saudiya rialigacha oshirish .

Ushbu dasturni amalga oshirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, Saudiya qirollik oilasi, xususan, valiahd shahzoda Muhammad bin Salmon o‘z malakatining 2030-yilga kelib, jahondagi yetakchi kuch markazlaridan biriga aylantirishdir. Bunda u asosiy uch asosiy ustuvorlik mavjud deb hisoblaydi, ular: arab-musulmon dunyosining markazi sifatidagi yetakchilik maqomi, investitsion salohiyati hamda strategik qulay o‘rnidan foydalanib, xalqaro savdoning boshqaruvchilaridan biri bo‘lish va shu orqali Afrika, Osiyo hamda Yevropani birlashtiruvchi kuch sifatida o‘z-o‘zini namoyon qilish . Albatta bundan ko‘rinib turibdiki, SAP tashqi siyosatida bir qancha o‘zgarishlar bo‘lishi kutilmoqda.

Asosiy qism. Yaqin Sharq mintaqasi va arab davlatlari orasida SAP katta siyosiy-iqtisodiy mavqega ega davlatlardan biri hisoblanadi. Saudiya Arabistoni mintaqaning boshqa arab davlatlari hamda arab bo‘lmagan davlatlarida islom dinining paydo bo‘lishi beshigi ekani, jumladan, muqaddas islom qadamjolari joylashganligi va arab olamining eng neftga boy davlati ekani bilan alohida ajralib turadi. Qolaversa, Fors Ko‘rfazi, Qizil dengiz va Yaqin Sharq mintaqasidagi geosiyosiy muhim joylashuvga ega. Bu esa Saudiya Arabistoni oldiga nafaqat milliy xavfsizlik masalalarini, balki mintaqaviy xavfsizlik muammolarini ham parallel ravishda hal etish mas’uliyatini yuklaydi.

Hukumatning asosiy Qonunida “SAPning suveren Arab Islom davlati ekanligi, davlat dini – islom, konstitutsiya esa – Qur’oni Karim va uni Rasuli Sunnati” ekanligi e’lon qilingan. Davlat boshqaruvi Mutlaq monarhiya bo‘lib, Podishohlik asoschisi Saud ibn Abdulaziz ibn Abdurahmon ibn Faysal ibn Turki ibn Abdulloh ibn Muhammad as-Saudning (1975–1982-yy) avlodlari tomonidan boshqariladi .

SAP tashqi siyosat yo‘nalishini asosan ikkiga ajratib olib o‘rganish natijaning aniqroq namoyon bo‘lishiga yordam beradi. Xususan, Mintaqaviy ya’ni, Yaqin sharq mintaqasi tashqi siyosati hamda Ko‘rfaz mintaqasi tashqi siyosati yo‘nalishi. Va albatta, SAPning global

kontekstdagi tashqi siyosiy yo'nalishi ham unutmazlik lozim. Shu nuqtai nazardan, SAPning mintaqaviy xavfsizlik siyosatining uchta asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin.

Dastlabki nuqta Ko'rfaz mintaqasi bo'lib, unda SAP tashqi siyosiy maqsadlari ushbu mintaqaga Eron, Iroq kabi kuchlar tomonidan ta'sir o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Saudiya Arabistoni Ko'rfaz mintaqasini o'zining ta'siri doirasida deb biladi va unga qarshi bo'lgan har qanday tahdidga keskin javob qaytaradi. Ko'rfaz mintaqasi dunyodagi eng boy energiya manbalariga ega. Qolaversa, SAPning eng muhim neft konlari Ko'rfaz sohilida joylashgan va ayni paytda Ko'rfaz mintaqasi Saudiya neftini xalqaro bozorlarga tashish yo'li hisoblanadi. Bundan tashqari, Saudiya Arabistonining yaqin qo'shnisi Yaman bilan aloqalarida ko'plab muammolari bor. Biroq, SAP Xitoy vositachiligida 2023-yil Eron bilan o'zaro diplomatik munosabatlarni tiklash bo'yicha kelishuvini e'lon qildi.

SAPning mintaqaviy xavfsizlik nuqtayi nazarining ikkinchi yo'nalishi – Yaqin Sharq mintaqasida unga raqib bo'lishi mumkin bo'lgan mintaqaviy kuch markazlarining (Masalan, Turkiya, Misr, Isroil kabi) paydo bo'lishi va uning kuchayishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Bunda avvalo, SAP Yaqin Sharq mintaqasida gegemonlik o'rnatish orqali rejimga qarshi bo'lgan siyosiy bosimlarning oldini oladi.

Hozirgi kunda SAP o'zining maqsadlarini amalga oshirish uchun qurolli kuchlariga katta e'tibor qaratib, qator islohotlarni amalga oshirmoqda. SAPning "Vision 2030" deb nomlanuvchi iqtisodiyotni qayta tashkil etish va diversifikatsiya qilishdagi hukumat rejasi bilan bir qatorda qurol sanoatini rivojlantirish bo'yicha ambitsiyalarni ham o'z ichiga oladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, 2030-yilga borib SAPning harbiy texnikasi xarajatlarining 50 foizdan ortig'ini mahalliyashtirish va bir nechta kompaniyalarni birlashtirish orqali "Saudi Arabian Military Industries" (SAMI) yangi kompaniyasini yaratishdan iborat. Shu jihatdan, SAMI "2030 yilgacha global harbiy sanoat sektorida yetakchi rolni o'z zimmasiga olishni" maqsad qilgan yirik loyihalaridan biri sanaladi.

Global miqyosadagi tashqi siyosiy maqsadlari hozirgi davrda SAP o'z mintaqaviy xavfsizlik siyosatida AQSh boshchiligidagi kollektiv G'arb yo'nalishiga tayanib qolish maqsadlaridan uzoqlashayotgandek go'yo. Qayd etish joizki, bugungi Yaqin Sharq mintaqada AQSh va Xitoy hamda Rossiya manfaatlarini to'qnashuvini kuzatish mumkin. Saudiya Arabistoni Vazirlar Mahkamasining Xitoy boshchiligidagi ShHTga qo'shilish qarorini ma'qullashi Ar-Riyod va AQSh o'rtasidagi ayrim manfaatlar doirasining buzilishiga olib kelmoqda.

Eron va Saudiya o'rtasidagi munosabatlar tom ma'noda Yaqin Sharq gegemonligi uchun kurashish fonida namoyon bo'lib kelgan. Ushbu masala 1979-yilda Eronda Islom inqilobidan so'ng keskinlik bosqichiga kirdi, bunga qator omillar sabab bo'ldi. Birinchidan, Eron Islom

inqilobini eksport qilish g'oyasi. Ikkinchidan Ko'rfaz nazorati borasida EIRning murosasizlik siyosati. Uchinchidan, Islom olamida yetakchilik roliga urg'u berayotganligi.

Bugungi kunda SAP va Eron Pekinda bo'lib o'tgan muzokaralar asosida diplomatik munosabatlarni tiklash bo'yicha kelishuvga erishganini e'lon qildi. Xitoy o'zini kelishuvning vositachisi sifatida ko'rsatdi. Bu muzokaralar birinchi navbatta XXRning xalqaro obro'sini oshirdi. Xitoy yuborayotgan signal shundan iboratki, Qo'shma Shtatlar Fors ko'rfazidagi asosiy harbiy kuch bo'lsa-da, Xitoy mintaqada kuchli va o'sib borayotgan diplomatik vositachiga aylandi. Bu butun dunyo bo'ylab Xitoyning kuchi va ta'sirini idrok etishni kuchaytiradi va AQShning global qudrati haqidagi da'vosiga barham berishi mumkin. Shu sababdan Xitoy Yaqin Sharqda kuchli o'yinchiga aylanmoqda, deyish mumkin. Xitoy so'nggi vaqtlarda Saudiya Arabistonining eng yirik neft eksport hamkoriga ham aylanmoqda.

SAPning AQShni butunlay chetlab o'tgan kelishuvga erishgani, Ar-Riyodning mustaqil tarzda xavfsizlikka intilishlarini diversifikatsiya qilishga intilayotgani va to'liq Qo'shma Shtatlarga tayanmaslik uchun harakat qilayotganidan dalolat beradi. Biroq, masalaning ikkinchi tomoni borki, uni unutmaslik lozim. Hozirda OAVda "SAPning notinchlikdan diplomatiygacha bo'lgan yurishi" kabi sarlavhalar ostidagi xabarlar, bu Saudiya tashqi siyosatidagi so'nggi paytlarda yuz bergan qandaydir bag'rikengligi natijasi ekanligini bildiradi. Biroq, aslida, bu qirollikning tashqi ishlarga nisbatan uzoq vaqtdan beri afzal ko'rgan yondashuvining birinchi o'ringa chiqishini aks ettiradi. Bu Saudiya Arabistonining mintaqaviy va xalqaro sahnada o'zini qanday tutishi va faoliyat yuritishidagi ritorikasini konkretlashtiradi, ammo mamlakatning strategik yo'nalishidagi o'zgarishlarni ko'rsatmaydi. Bunday tashqi siyosat kursi 2010-yillarning o'rtalarida valiahd shahzoda Muhammad bin Salmon hokimiyat tepasiga kelganidan beri bu yanada aniqroq namoyon bo'lmoqda.

2023-yilning yanvar oyida Saudiya Arabistoni moliya vaziri Muhammad Al-Jadaan mamlakat neft va gaz savdosi bo'yicha hisob-kitoblarni AQSh dollaridan boshqa valyutalarda muhokama qilish uchun ochiq ekanligini ma'lum qilgan edi. 2023-yil noyabr oyida Xitoy Xalq banki va Saudiya Arabistoni Markaziy banki o'rtasida valyuta almashinuvi bo'yicha kelishuv imzolandi, uning hajmi 50 milliard yuanni (deyarli 7 milliard dollar) tashkil etdi. SAP va biron bir davlat o'rtasidagi hamkorlik yoki munosabatlarni kengaytirish u yoki bu tomonning tanlovi sifatida emas, balki faqat o'z manfaatlarini ko'zlagan mamlakat sifatida ko'riladi. Shundan keib chiqib, SAP ham boshqa ko'plab davlatlar kabi valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish va AQSh dollariga qaramligini kamaytirishga, Oq uydan uzoqlashishga emas, balki milliy xavfsizligini mustahkamlashga harakat qilmoqda. Bunday holda, harakatlar tanlovi va qarorlar

qabul qilishning mustaqilligi ko'p qutbli dunyoning shakllanishidan dalolat beradi, xalqaro hisob-kitoblar uchun muqobil valyutani yaratish esa bu jarayonni kuchaytirishga yordam beradi.

Darhaqiqat, SAP Pekinni Vashington o'rniga almashtirishga intilayotgani yo'q – Xitoy yoki boshqa davlat ko'rfazdagi dengiz xavfsizligining asosiy kafolati bo'lish mantiyasini o'z zimmasiga olishi yoki egallashi mumkinligi haqida hech qanday tasavvurga ega emas. AQShning beshinchi floti o'nlab yillar davomida. U hali ham AQSHni, kamroq darajada Buyuk Britaniya va Fransiya o'zining eng muhim mudofaa hamkorlari sifatida ko'radi va G'arb iqtisodiyotlarini Vision 2030ni amalga oshirish uchun g'oya, texnologiya va sarmoyaning asosiy manbalari sifatida ko'radi. G'arb ham Saudiya Arabistoni suveren jamg'armasi tomonidan sarmoya kiritish uchun qulay joy bo'lib qolmoqda.

Biroq, bularning hech birini xavf ostiga qo'yimoqchi bo'lmagan Ar-Riyod, shuningdek, Saudiya neftini katta miqdorda sotib olishdan ko'ra ko'proq narsaga qodir bo'lgan strategik hamkor sifatida ko'radigan Xitoy bilan ham aloqalarni kengaytirishga intilmoqda, ayniqsa texnologiya transferi bo'yicha. Shu bilan bir qatorda, SAP OPEK+ kontekstida xalqaro neft bozorlarini boshqarish va ta'sir o'tkazishda ajralmas sherik sifatida ko'radigan Rossiya bilan hamkorlikni to'xtatgani yo'q.

Umuman olganda, Saudiya Arabistoni o'zini hamma bilan, jumladan, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan global kuchlar bilan konstruktiv munosabatlarga ega bo'lishi mumkin bo'lgan va muayyan masalalar bo'yicha kelishmovchiliklar munosabatlarning uzilishiga olib kelmasligi kerak bo'lgan vaziyatga qo'yishga harakat qilmoqda.

Qirolikning tashqi siyosatiga ta'sir etuvchi yuqorida qayd etilgan omillardan tashqari, SAP tashqi siyosatining mintaqaviy va xalqaro maydonda faollashishiga hamda mintaqaviy va xalqaro muammolarni hal etishda Ar-Riyodning rolining oshishiga yana bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi.

1. Ukrainadagi mojaro va G'arb tomonidan Rossiyaga nisbatan joriy etilgan misli ko'rilmagan sanksiyalar G'arbning iqlim o'zgarishi bahonasida neftni kamaytirishga bo'lgan muvaffaqiyatsiz urinishlaridan keyin uning ahamiyatini tiklashga xizmat qildi. G'arb davlatlari qirolikni Rossiyaga qarshi sanksiyalarga jalb qilishga va Rossiya daromad manbalaridan mahrum qilish uchun uni OPEK+ orqali Moskva bilan muvofiqlashtirishni to'xtatishga majbur qilishga harakat qilishdi, biroq Ar-Riyod, Ukraina energiyani siyosiy lashtiradigan o'yinlarga aralashishdan bosh tortdi, garchi u Rossiya va Ukraina o'rtasidagi mojaroni hal qilish uchun kuch ishlatishni qoralasa ham.. Saudiya Arabistonining sanksiyalarda ishtirok etishdan bosh tortishi uning Rossiya bilan hamkorlik qilish istagini ham, Vision 2030 muvaffaqiyati uchun Rossiya va boshqa neft qazib oluvchi davlatlar bilan muvofiqlashtirish zarurligini aks ettiradi.

Neft qazib olish va narx siyosatini G'arbning tor siyosiy hisob-kitoblariga bo'ysundirib bo'lmaydi.

2. Yaqin Sharq o'z ahamiyatini yo'qotgani va Xitoyga qarshi kuchayib borayotgan buyuk davlat sifatida e'tiborini Sharqqa qaratayotgan Qo'shma Shtatlar uchun endi ustuvor ahamiyatga ega emasligi haqidagi AQSh ma'muriyatlarining bir necha bor takrorlangan bayonotlari. Bu tendensiya Qirollik va mintaqaning qolgan qismidagi hamkorlikni diversifikatsiya qilish zarurligiga ishonchini mustahkamladi. Mintaqa va uning mamlakatlari manfaatlari bizni faqat G'arb bilan tarixiy hamkorlikka tayanishni to'xtatishga majbur qilmoqda, chunki G'arb mamlakatlaridagi xalqaro mezonlar va ichki sharoitlarning o'zgarishi ularga ishonchli hamkor sifatidagi ishonchni pasaytiradi.

3. "Arab bahori" voqealari tufayli ko'plab arab davlatlarining, xususan, Iroq va Suriyaning zaiflashishi, shuningdek, mintaqaviy kuchlarning chekinishi imkoniyat va ta'sirga ega bo'lgan davlatlarning mas'uliyatini oshirdi. Jumladan, mintaqada barqarorlikni tiklash, vaziyatning yanada yomonlashishiga yo'l qo'ymaslik, agressiv aralashuvga qarshi arab birligini saqlash, ekstremistik qurolli guruhlar va terroristik tashkilotlarga qarshi turish uchun SAP qulay imkoniyatlarga ega bo'ldi.

SAP tomonidan ishlab chiqilgan "Vision 2030" uning yirik iqtisodiy islohotlar dasturi hisoblanadi. U mamlakatni an'anaviy iqtisodiy tizimdan rivojlangan, barqaror, kuchli va xalqaro miqyosda raqobatbardosh iqtisodiy tizimga ega davlatga aylantirish uchun joriy qilingan dasturdir.

"Nigoh 2030"ning eng muhim ustunlaridan biri xalqaro strategik sheriklik bo'lib, Saudiya Arabistonidan faol tashqi siyosat olib borishi hamda ittifoq va o'qlarga qo'shilmasdan barcha potentsial hamkorlar uchun ochiq bo'lishini talab qiladi. Bu Qirollikning G'arb bilan an'anaviy aloqalarini saqlab qolgan holda Xitoy, Rossiya, Hindiston va boshqa bir qator davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash istagini tushuntiradi, lekin ularning bunday hamkorlikka to'siq bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

Shuningdek, dasturda ichki iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar bilan birga mintaqaviy hamda xalqaro miqyosdagi tashqi siyosatga ham alohida urg'u berilgan. So'nggi yillarda mamlakat tashqi siyosat borasida faollik ko'rsatib, o'zining an'anaviy hamkor davlatlari geografiyasini kengaytirishga harakat qilmoqda. Shunga ko'ra, SAP musulmon dunyosidagi yetakchilik maqomini mustahkamlash, rivojlanayotgan musulmon davlatlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu bilan birga, istiqbolli bozorlarni izlab topish maqsadida Markaziy Osiyo mintaqasiga e'tibor qaratmoqda. U mintaqadagi istiqbolli mamlakatlar sifatida O'zbekiston va Qozog'istonni e'tirof etadi. So'nggi uch yilda Saudiya mintaqaga yo'naltirgan sarmoyalarining

eng katta qismini O'zbekiston iqtisodiyotidagi turli tarmoqlar, xususan, energetika sohasiga yo'naltirdi. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, yangilanayotgan Saudiya Arabistonining iqtisodiy kelajagi uchun poydevor vazifasini o'tayotgan "Vision 2030" yangilanayotgan O'zbekistonning ham iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda Saudiya Arabistoni o'z mintaqaviy xavfsizlik siyosatida AQSh boshchiligidagi kollektiv G'arb yo'nalishiga tayanib qolish maqsadlarini o'zgartirmoqda. Biroq ko'p omillar evaziga Qo'shma shtatlarga bog'langan Saudiyaning birdan tashqi siyosiy vektorining o'zgarib ketishi ham oson emas. Saudiya Arabistoni Pekinni Vashington o'rniga almashtirmoqchi emas – Xitoy Fors ko'rfazidagi dengiz xavfsizligining asosiy kafolatchisi bo'lishni xohlaydi yoki shuni uddalay oladi deb umid qilmoqda.

Qolaversa, Saudiyaliklar mintaqaviy xavfsizlikning kuchlar muvozanati, ta'sir doirasini kengaytirish va harbiy salohiyatni oshirish bilan cheklanib qolmasdan, balki Yaqin Sharq mintaqasidagi barcha xalqlar uchun farovonlik uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan keng qamrovli nuqtai nazarni qabul qilish haqida bosh qaotirishmoqda. Bu yo'lda birinchi qadam ziddiyat va qarama-qarshilik sahnasidan diplomatiya va taraqqiyot bosqichiga o'tishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammadsidiqov M.M. Musulmon mamlakatlari va zamonaviy xalqaro munosabatlar. Toshkent – 2019. – B. 59.
2. Saudi Arabian Military Industries (SAMI) <https://www.pif.gov.sa/en/our-investments/our-portfolio/saudi-arabian-military-industries/>
3. Kingdom of Change: Saudi Arabia's Evolving Foreign Policy <https://rusi.org/explore-our-research/publications/commentary/kingdom-change-saudi-arabias-evolving-foreign-policy>
4. Саудовский министр объявил о готовности страны к расчетам за нефть не только в долларах США. <https://www.kommersant.ru/doc/5774111>
5. China, Saudi Arabia sign currency swap agreement. <https://www.reuters.com/markets/currencies/china-saudi-arabia-central-banks-sign-local-currency-swap...>
6. Блог Дмитрия Дыканя. Многовекторная внешняя политика КСА. <https://russiancouncil.ru/blogs/dmitri-dykan/mnogovektornaya-vneshnyaya-politika-ksa/>
7. Виталий Наумкин, Василий Кузнецов. Газа. Йемен. Эпицентры боли. О чувствах, мифах и памяти на Ближнем Востоке . XIII Ближневосточная конференция Международного дискуссионного клуба «Валдай» и Института востоковедения РАН.

13.02.2024 - 14.02.2024. <https://ru.valdaiclub.com/a/highlights/aktivnaya-vneshnyaya-politika-saudovskoy-aravii/>

8. Kingdom of Saudi Arabia Vision 2030. https://www.vision2030.gov.sa/media/rc0b5oy1/saudi_vision203.pdf

9. Ikromov Sh. "Vision 2030": Saudiya Arabistonining O'zbekistonga yangicha nazari. Yangi O'zbekiston gazetasi. 26 April 202. <https://yuz.uz/uz/news/vision-2030-saudiya-arabistonining-ozbekistonga-yangicha-nazari>

10. Kouleas, Jaclyn Alexandra, "Saudi Arabian Foreign Policy and Hedging: Playing its Cards Right" (2023). Major Papers. 281. <https://scholar.uwindsor.ca/major-papers/281>.